

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**5440400 “Kimyo” yo’nalishi
IV-kurs 42-guruh talabasi**

BOZORVA OG`IL XOLMIRZAYEVNAning

**“Zevarda tuz konidagi Magniy sulfat
hamda magniy xlorid tuz
miqdorini aniqlash” mavzusida**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Qarshi-2012

MUNDARIJA

Kirish.....	2
 I-Bob.Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.....	7
1.1.Magniyli tuzlar va ularning tabiiy manbalari	7
1.2.Mineral tuzlarni ishlab chiqarishning zamonaviy usullari.....	14
1.3.Mineral tuzlarni xalq xo'jaligidagi ahamiyati.....	18
II-Bob.Olingan natijalar tahlili	28
2.1.Magniy xlor tuzining olinishi va uning fizik-kimyoviy xususiyatlari	28
2.2. Magniy birikmalarining olinishi kimyoviy xossalari va tabiatda tarqalishi.	31
2.3.Magniyli tuzlarning qo'llanilish sohalar.....	38
 III-Bob.Tajribalar qismi.....	41
3.1.Mineral tuzning nomligini aniqlash.....	41
3.2.Magniy xlor tuzining miqdorini aniqlash.....	46
3.3.Magniy sulfatning miqdorini aniqlash	48
 IV-Bob.Xulosa.....	51
Foydalanilgan adabiyotlar.....	53

Kirish

O'zbekiston Prezidenti I.A. Karimov o'zining „O'zbekiston Mustaqillikka erishish ostonasi“ kitobida Respublika boyliklarini ko'tarasiga va chakanasiga sotib yuboraverish ahvoldan chiqishning yo'li emas, men hamamiz ana shu g'oyani, ana shu fikrni o'qib olishimizni istar edim. Bu o'rinda asosiy vazifa — ishlab chiqarilayotgan va qazib olinayotgan xom ashyoni kompleks qayta ishlashda, aytish mumkinki, chiqindisiz qayta ishlashda, respublikaning o'zida uni tayyor mahsulotga aylantirishdadir. Boshqacha aytganda, respublikada zamonaviy texnika va texnologiya bilan jihozlangan qudratli qayta ishlash sanoatini bunyod etish va shunday qilib, uzluksiz o'sib borayotgan mehnat resurslarini ish bilan ta'minlash, respublika milliy daromadining yuqori sur'atlarda o'sishiga erishish hamda mamlakatimizdagi har jihatdan uyg'un rivojlangan respublikalar darajasiga yetib olishdir.

O'zbekiston prezidenti I.A.Karimov o'zining „Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari“ kitobida: „.... Jahon moliyaviy inqirozidan imkon qadar tez chiqish, uning oqibatlarini yengillashtirish ko'p jihatdan har qaysi davlat doirasida ...qabul qilinayotgan chora tadbirlarni qanchalik samaradarligiga...bog'liq“ deb aytgan. Ana shu fikrga mos, kon sanoati qurilmasi va jihozlarini korroziyadan saqlash ayrim moliyaviy-iqtisodiy muammolarni yengillashtiradi, hamda qabul qilingan chora-tadbirlarni samaradorligini ta'minlaydi.Yuqorida saqlash muammosi hozirgi sharoitning dolzarb masalalaridan biri ekanligi kelib chiqadi.

Mamlakatimizda mineral tuzlar qazilma boyliklariga juda boy bo'lganligi uchun ularni joylashgan o'rni, tuzilishi, kelib chiqishi, ko'payish shartlari, kimyoviy tarkibi jihatdan hamda ularni ajratib olish va ularda keng miqiyosda foydalanish barchada qiziqish uyg'otadi. Tabiiy mineral tuzlar boshqa foydali qazilmalardan mamlakatlar, xalqlarning sanoatida va xo'jalik hayotida muhim rol o'ynaydi.Barcha noorganik tuzlar ham xalq xo'jaligida bir xil ahamiyatga ega emas, ulardan ayrimlari boshqa sohalarda ishlatilsa, qolganlari dunyo bo'yicha qozib olinishi va ishlab chiqarilishi yiliga millionlab va hattoki 10 millionlab tonnani tashkil etadi. Tuzlar ximiyaviy birikmalarning bir sinfi bo'lib, ion tuzilishga ega kristall moddalardir.XVI asrda alximiklar “tuzlar” tushunchasini metallarning eruvchanligini harakterlash uchun qo'llaganlar, ammo ximiya rivojlanib brogan sari bu tushuncha kislota va asos reaksiyalari bilan ko'proq bog'lanaverdi.Masalan, XIX asr boshida shved ximigi Y.Bertseshus tuzlar kislota va asoslar reaksiyalarining mahsuloti yoki kislotaldagi vodorodning metallga almashishidan hosil bo'lgan ximiyaviy birikma deb ta'riflaydi.Suv havzalarida tuz eritmalari kontsentratsiyasining bug'lanish natijasida o'zgarishi tuz kristallari qatlamlarini hosil qiladi (masalan, tosh tuz), ularning kation va onionlarining o'rin

olish reaksiyalari natijasida erimaydigan cho'kmalar-ohaktosh (Ca CO_3), ($\text{Ca SO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$) yoki metal sulfidlari hosil bo'ladi. Inson uzoq vaqtlardan beri meneral tuz konlaridan foydalanadi yoki tuzlarni ularning eritmasidan ajratib oladi.

Tuzlar tuzlar buyash ishlarida (xrom tuzlari), qurilish materiali sifatida, turli matallarni olishda xom ashyo sifatida ishlatiladi. Tegishli tuzlarni elektroliz qilib, gologenlar va ayrim metallar olinadi. Tuzlar o'g'it sifatida ham keng qo'llaniladi. (selitralar Na NO_3 va $\text{NH}_4 \text{NO}_3$, turli fosfatlar) kaliy nitrit KNO_2 go'shtni saqlash uchun, salitsil kislotaning natriyli tuzi esa dori sifatida ishlatiladi. Hamma tirik organizm, jumladan odam organizmida ham gavda og'irligining 5,5% i tuz bo'lib, organizm tuz muvozanatini doimiy saqlab turishga muxtojdir.

Mavzuning dolzarbligi.

Ma'lumki, qishloq xo'jaligini rivojlantirishda ammiak birikmalariga talab ham juda yuqori turadi. Chunki o'simliklarning o'sib rivojlanishi uchun zarur bo'lgan asosiy kimyoviy elementlardan N_2 , P, K va ba'zi boshqalari o'simliklarga ko'p miqdorda kerak bo'ladi. Azot birikmalari fan uchun ham sanoatning ko'pgina tarmoqlari uchun ham katta ahamiyatga ega. Bog'langan azotni olish uchun insoniyat juda ko'p energiya sarflaydi. Sanoat sharoitlarida azotni bog'lashning asosiy usuli ammiak NH_3 sentizi bo'lib qolmoqda. Ammiak ximiya sanoatida eng ko'p ishlab chiqariladigan mahsulotlardan biri, butun dunyoda u yiliga 70 million tonnadan ko'proq ishlab chiqariladi. Protses 400-600 gradus temperaturada va millionlab paskal 100 lab atmosfera bosimida katalizatorlar ishtirokida boradi. Kaliy oksid, alyumin oksid qo'yilganda g'ovak temur katalizatorlar sifatida ishlatiladi. Ammiakning o'zi cheklangan miqdorga va odatda suvdagi eritmalar hamda (ammiakli suv o'g'it sifatida spirt miditsinada) ishlatiladi. Lekin ammiak atmosfera azotidan farq qilib turilishi va alamashinishi reaksiyalarida ancha oson kirishadi. U azotga qaraganda oson oksidlanadi ham. Shu sababli NH_3 ko'pchilik azotli moddalarni olishda boshlang'ich mahsulot sifatida ishlatiladi. Shuni alohida takidlash kerakki, NH_3 ishlab chiqarishda ishlatiladigan magniy oksid ham chetdan keltiriladi. Yuqorida qayd etib, o'tilganidek natriy sulfat va magniy oksidlari shisha va NH_3 ni ishlab chiqarishda, tibbiyotda, kimyo sanoatida va boshqa maqsadlarda keng miqiyosda ishlatiladi. Shu boisi ushbu birikmalarga bo'lgan talabni mahalliy xom-ashyolar sifatida qondirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Bitiruv malaka ishimning masadi va vazifalari.

Magniy va uning birikmalari xalq xo'jaligining turli sohalarida keng qo'llanilib kelmoqda. Magniyning tabiiy birikmalari orasida tarqalgan asbest muhim meniralli moddalardir. Dengiz suvida magniy ko'p bo'ladi.

Mg ionlari dengiz suvida achchiq ta'm beradi. Mg birikmalari jumladan magniziya $MgSO_4$ ham tibbiyotda surgu sifatida ishlatiladi. Bundan tashqari o'simliklarning oziqlanishi uchun juda zarur. Mg tuzlarini hamma tuproqlarda uchratish mumkin. Bu element amalda deyarli barcha organizmlar tarkibida bor, ayniqsa xlorofil tarkibida juda ko'p. (2% atrofida) uchraydi. Mg organik sintez sanoatda qo'llaniladi. Uning asosida turli organik birikmalar sinfiga mansub moddalar (xushbo'y va dori moddalar) va element organik birikmalar olinadi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shuni ta'kidlab o'tish kerakki, Mg va uning birikmalari jumladan MgO NH_3 ishlab chiqarishda tibbiyotda kimyo sanoatda boshqa maqsadlarda keng miqyosida ishlatiladi. Biroq MgO o'zimizda chetdan keltiriladi. Shu boisi ushbu birikmalarga bo'lgan talabni mahalliy xom ashyolar asosida qondirish maqsadga muvofiqdir. Shuning uchun ham ushbu bitiruv ishimning asosiy maqsadi ham MgO va $MgSO_4$ tuzlarini ajratishga tabiiy quyosh energiyasidan foydalanib, katta beton xovuzlarida zevarda tuz koni eritmasi suvining bug'latish orqali konsentrlash, konsentrlangan eritmadan sundirilgan chok yordamida $Ca(OH)_2$ ni cho'ktirish va ftirlash, quritishda qurigan $Ca(OH)_2$ ni qizdirib MgO ni olishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishimning ilmiyligi.

Ushbu bitiruv malaka ishini amalgam oshira borib, zevarda tuzi koni eritmasi va sho'rlangan tuproqlar tarkibidan magniyning xlorli hamda sulfatli tuzlarini miqdorini aniqlash va ularni ajratib olishni yo'laga qo'yishdan iborat. Ma'lumki, qishloq xo'jaligini rivojlantirishda NH_3 birikmalariga bo'lgan talab hozirgi vaqtda ortib bormoqda NH_3 ishlab chiqarishda ishlatiladigan MgO ham chetdan keltiriladi. Ushbu keltiriladigan mahsulotlarni mahalliy xomashyolar asosida ishlab chiqarish bugungi kunning asosiy masalalaridan biri hisoblanadi. Qashqadaryo viloyati Nishon, G'uzor, Muborak va Mirishkor tumanlarida bir qancha tabiiy gazni qayta ishlaydigan kimyoviy zavodlar mavjudligi sababli ushbu tumanlarning tuproqlari tarkibida Na, Ca hamda Mg ning xlorli sulfatli tuzlarining miqdori ko'pligi aniqlandi. Shu tumanlardagi o'ta sho'rlangan tuproq tarkibidagi tuzlarni yuvish jarayonida hosil bo'ladigan MgO dan NH_3 ishlab chiqarishda foydalanishdan iborat.

Shuningdek, ushbu tumanlarda foydalanib bo'lmaydigan o'ta sho'rlangan tuproqlarini tuzlardan tozalash orqali qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish uchun foydalanib kelinayotgan yerlarning umumiy hajmini kengaytirish va ekologiyani yaxshilashdan iborat.

I-bob Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

1.1 Magniyli tuzlar va ularning tabiiy manbalari.

Ko'pchilik foydali qazilmalar ichidan xalq xo'jaligi va turmushda ko'p qo'llaniladigan mineral tuzlar resursi eng muhim ahamiyat kasb etadi. Ular asosan katta ishlab chiqarish zavodlari masshtabida kimyoviy birikmalar ishlab chiqarishda boshlang'ich tabiiy xom-ashyo moddalari sifatida xizmat qiladi. [5]

Mineral tuzlar o'zining kelib chiqishi jihatidan nafaqat tarkibi xom-ashyoning sifati hamda geologik tuzilishi jihatdan farq qiladi. Tabiiy mineral tuzlarning asosiy gruppasi o'zining kelib chiqishi, fizik kimyoviy xossalarning bir-biriga yaqinligi sanoatda maishiy xizmatda hamda foydali qazilmalardan foydalanish jihatdan bir-biriga yaqin. Ularning harakatli xususiyatlari jumladan suvda yaxshi eruvchanligi sho'rliigi ham bir-biriga yaqinligini bildiradi. Ximiyaviy jihatdan organda bu tuzlar xlarid, sulfat nitrat hamda karbonat kislotalarning Na, K, Ca hamda Magniyli tuzlaridan iborat. Tabiatda bu metallarning oddiy tuzlari emas, balki qo'sh tuzlari, tarkibida 1-2 va undan ortiq molekulada suv saqlaydigan tuzlar shuningdek suvsiz tuzlari ko'plab uchraydi. Shu nuqtai nazardan olganda mineral tuzlarning tarkibiga unchalik murakkab tuzilishga ega bo'lmaydi. Shubhasiz yuqorida qayd etilgan mineral tuzlar eng muhimi insoniyat qadimdan foydalanib kelayotgan osh tuzi hisoblanadi. Insoniyat osh tuzidan millionlab yillar davomida nafaqat oziq-ovqat mahsulotlariga tam beruvchi modda sifatida balki, osh tuzi inson organizmi uchun eng zarur modda ekanligini bilgan holda ham foydalanib kelingan.[8]

Insoniyatning yillar davomida tizidan oziq-ovqat mahsulotlari tayyorlash hamda uni iste'mol qilib kelingan bo'lsa, ximiya hamda ximiya sanoatining rivojlanishida uni sanoat miqyosida ham foydalanish imkoniyatlari ham vujudga keldi. Mineral tuzlar jumladan sho'rlangan qumlardan soda ishlab chiqarish dastlab qadimda amalgam oshirilgan huddi shuningdek shisha ishlab chiqarish ham 1- oshirilgan eng muhim ximiyaviy reagentlardan hisoblanganligi sababli natriy nitrat hamda kaliy nitratlardan o'rta asrlarda suniiy usullarda ishlab chiqarila boshlangan. Porox ishlab

chiqarish ehtiyojlari tug'ila boshlagan. Tabiiy sletraning qazilma boyliklari dastlab 1809-yilda aniqlangan 100 yillar davomida chili sletrasi HNO_3 si va uning tuzlarini olishning asosiy xom-ashyosi bo'lib xizmat qilib kelgan faqatgina azotni havodan ajratib olish ishlari yo'lga qo'yilgandan so'ng (es) azotni birikmalarini ishlab chiqarish sohasida bir muncha ijobiy ishlar amalgam oshiriladi.

1845- yilda nemis kimyogari hamda vrachi Lebidev osh tuziga sulfat kislotasini ta'sir ettirib natriy sulfatining qudratli tuzini hosil qildi. Keyinchalik bu tuzlarning (merabelit, tinardit) tabiiy manbalari ham borligi aniqlandi. Jumladan 1847 yil mirabelitning qora bug'oz ko'lidagi tabiiy manbalari letenant Zerebsov tomonidan aniqlangan. Shundan so'ng bir necha o'n yillardan so'ng tabiiy mirabelitni sanoat ishlarida foydalanish ishlari yo'lga qo'yildi.

Tabiiy mineral tuzlar bir necha xil qazilma boyliklariga ega. Ular o'zlarining joylashuvi hamda geologik davrga qarab bo'linadi. Qazilma boyliklar 2-turga dengiz hamda sho'r ko'llarning suvlarida uchrashi va ulardan doimo kristallanib tuz holiga cho'kmalar hosil qilishiga qarab bo'linadi. [12]

Tuz konlarining ikkinchi turiga yer osti sho'r suvlarining yuzaga chiqarish va ulardan mineral tuzlarning qatlamlarining hosil bo'lishiga asoslangan.

Osh tuzi kaliyli tuzlar hamda natriyning sulfatli tuzlarini cheklanmagan miqdorda zaxiralari dengiz hamda okean suvlarida uchraydi. Shuning uchun ham dengiz suvlaridan tuzlarni ko'pgina mamlakatlarda dengiz yonida qurilgan maxsus havzalardan olinadi. Havzalarga esa suvlar maxsus nasoslarda tashlab tushiriladi. Dengiz suvlaridan mineral tuzlarini sistematik usulda ajratib olish eramizning 2200 yil ilgari Xitoyda amalgam oshirilgan hozirda ham ko'pgina mamlakatlarda jumladan Xitoy, Hindiston, Yaponiya, Turkiya va boshqa mamlakatlarda osh tuzi dengiz suvlaridan olinadi. Dunyo aholisi ehtiyojini qondiradigan tuzni 40% dengizdan olinadi.

Golid-bu (noma) monamerlarning nomi grekcha „Xolos“ so'zidan olingan bo'lib „tuz“ degan ma'noni anglatadi. Ximiyaviy tarkibiga ko'ra golid natriy xloriddan iborat (NaCl)

Osh tuzi kristallarni o'zining hosil bo'lish sharoitiga qarab kubik shakllarga ega. Kristal qobuqlarning uzunligi 10-15 sm bo'ladi. Golidning ayrim kristallari kamdan-

kam hollarda toza, rangsiz tiniq bo'ladi. Juda chiroyli kristallar esa binafsha, havorang va o'tkir ko'k rang bo'ladi. Ranglar har xil dog'lar chiziqlar yoki shakl ko'rinishida bo'ladi. Ranglar hosil bo'lishi natriy xlor molekulasini parchalanishi natijasida natriy atomni hosil bo'lishi mineralni har-xil rangli ko'rinishiga olib keladi.

Tabiiy minerallardan qisman radiaktiv xususiyatiga ega bo'lgan kaliyni bo'lishi NaCl molekulasini parchalanishiga olib keladi. Shuning uchun ham golid ko'proq kaliyli tuz qavatlariga ko'p miqdorda uchraydi. Golid tarkibida organik qo'shimchalarning bo'lishi mumkin. Ko'p hollarda tosh tuzi kaliy tuzlari bilan birgalikda uchrasa unda uning qatlamlarini rangi kuchsiz qizg'ish sariq va qizg'ish qizil rangda bo'ladi.

Selvin: bu mineral o'zining bir qator xossalari jihatdan golidga yaqin ximiyaviy tarkibi jihatdan farq qilib u kaliy xloriddan iborat. U birinchi marta 1828 yil Germaniyada tuzlar zaxiralaridan olingan bo'lib, uni shifokor vrach selvins nomi bilan atay boshlagan. Selvin kristallari ham golid kristallari kabi kubik shakliga ega bo'lib uni golid minerallaridan

saqlash juda qiyin bo'ladi. Ularni ta'mi bir biridan keskin farq qiladi. Selvini ta'mi juda achchiq juda sho'r bo'ladi. Bundan tashqari bu minerallar o'zlarining har xil ranglari ham bir-biridan ham keskin farq qiladi. Selvin uchun temir oksidlari aralashmasining borligi tufayli hosil qilinadigan o'tkir qizil rangli ko'rinishda bo'ladigan minerallarni bo'lishi xarakterli hisoblanadi. [15]

Bundan tashqari selvinning oq rangli minerallari ham uchrab turadi.

Selvin hamda galit minerallari kaliyli tuzlarning zaxiralaridan birgalikda uchrasa ularning foizlari bir-biridan keskin farq qiladi. Ular o'zaro tog'li qatlamlarni hosil qiladi. Bu qatlamlar turli xildagi kaliy tuzlarini olish uchun xom ashyo bo'lib xizmat qiladi.

Tarkibida kaliy bo'lgan minerallar orasida selvin tabiatda keng tarqalgan minerallardan bo'lib hisoblanadi. U dunyodagi barcha kaliyli tuzlarning olishda eng muhim xom ashyo hisoblanadi.

Karnalit-KCl, $MgCl_2 \cdot 6H_2O$

Kaliyli minerallar orasida o'zining tarqalishi hamda tutgan o'rniga ko'ra karnalit selvindan so'ng ikkinchi o'rinda turadi. Bu minerallar 1855 yil kuchli minerologik gerozik tomonidan kashf etilgan. Yu Karnalyu sharafiga ko'ra karnalit deb nomlangan.

Karnalit yopishqoq xususiyatga ega emas. U qizdirilganda shakllari o'zgarib chiziqli holatga o'qib qoladi. Uning eng muhim xususiyatlaridan biri E. Razinovskiy tomonidan aniqlangan mineral metal bilan qizdirilganda yoki belgilanganda ovoz chiqarishidir. U gigroskopik modda bo'lib, o'zidan namni tortib oladi va doimo suyuq quyqa holatda bo'ladi. Shuning uchun uni quruq idishlarga saqlash kerak bo'ladi.

Karnalit zaxiralari boshqa qazilma boyliklariga saqlashi bilan farq qiladi. Shuning uchun bu minerallar yuqa qatlamli idishlarda eritilganda hosil bo'lgan gaz bo'limda idishlar yorilib ketadi va ajralib chiqayotgan gazning ovozi eshitilib turadi. Bundan tashqari karnalit zaxiralarida ko'p miqdorda tarkibi vodorod hamda metallardan iborat bo'lgan gaz to'planib qoladi va bu gazlar zaxiraga ishlov berish jarayonida ajralib chiqish yong'inlar hosil qiladi va oxir-oqibatda portlab ketishiga olib keladi.

Karnit. Bu mineral 1 marta 1865 yil Germaniyaning tuzli qazilmalaridan topilgan „kaynos“ grekcha „yangi“ degan ma'no anglatadi. Bu minerallarning tarkibiga kaliy xlorid, magniy sulfat hamda uch molekula suv kiradi. ($KCl, MgSO_4 \cdot 3H_2O$)

Odatda karnit mayda kristal donachalaridan ko'z bilan ilgach juda qiyin. Karnit havo hamda ko'k rangli galet va boshqa minerallar bilan birgalikda karnit qatlamlarini hosil qilgan holda uchraydi. Tuz qatlamlari yorilganda karnit tuzilishi hosil qiladi. Karnit uchun och-sariq ranglar xarakterli hisoblanadi. [17]

Kainet suvda yaxshi eriydi, ammo gigroskopik emas, yoki nam ta'sirida o'zgarmaydi. Uning ta'mi kuchsiz, achchiq, sho'r.

Langbiynit. Kaliy tuzlarining bir qancha foydali qazilmalarida keng tarqalgan langbiynet ham keng miqiyosda foydalanilmoqda. Uning kimyoviy tarkibi kaliy sulfat hamda 2 molekulray magniy sulfatdan iborat. ($K_2SO_4 \cdot 2MgSO_4$).

Bu mineral 1880 yil sun'iy ravishda kimyogar Prext tomonidan olingan bo'lib 1891 yil esa Germaniyaning tuz konlaridan biriga uning tabiiy zaxirasi

aniqlangan. Va unga "Langbiynit" nomi berilgan. Langbiynit yaxshi ko'rinishdagi kristallari tabiatda kamdan-kam uchraydi. Ular oddiy shakllarning bir necha xil formalarining yig'indisidan iborat bo'lgan murakkab ko'rinishda bo'lishi mumkin. Langbiynit kuchsiz qirmizi yoki qizg'ish binafsha rangda qoplangan biroq och sariq och kulrang va rangsizlarda ham uchraydi. Biroq u golit silven karnalitlarga nisbatan sovuq suvda yomon eriydi. Ayni vaqtda esa namlikni moyilligi ularga nisbatan ancha katta hatto nisbatan quruq xonalarda ham u biroz vaqtdan so'ng bu minerallarning ustki qismi oq yoki och sariq rangli poroshok bilan qoryib qoladi.

Langbiynetni eng qulay tomonlaridan biri shuki, uni minerallar orasida tuzd aniqlash uncha qiyinchalik tug'dirmaydi.

Shuningdek, bu minerallarga metallar bilan qattiq ishlov berilganda havorang yashil alanga chiqaradi. Bundan tashqari Langbiynet parashogini qizib turgan metal plastinka ustiga spelka yashil rangli uchqunlar hosil bo'lishini ko'rish mumkin.

Bunday holatni ko'pchilik tabiiy birikmalarga xos bo'lgan termomoniun nissensiya ekanligini aniqlash qiyin emas.

Poligalet-bu mineral unchalik sanoat ahamiyatiga ega bo'lmasada, u tabiatda kaliy tuzlarining alohida vakili sifatida keng tarqalgan. Uning nomi "grekcha" "polis" ko'p "xams" tuz yoki "sho'r" degan so'zlaridan iborat bo'lib, ko'pchilik tuzlar aralashmasidan iborat degan ma'no anglatadi. Haqiqatdan ham kaliy, magniy hamda kaliyning sulfati tuzlaridan iborat bo'lib, ikki molekula suv ham saqlaydi. Uning kristalk donachalarining ko'z bilan ilg'ash juda qiyinchilik tug'diradi.

Suvda yomon eriydi, achchiq ta'mli emas, poligalit qizil o'tkir qizil, sariq rangli bo'ladi. Bundan tashqari poligalitning kulrang oq va oq rangli formali ham uchraydi.

Natriy sulfat qazilma boyligining oksi minerallari mirabilet, galuber, ($Na_2SO_4 \cdot 10H_2O$) bilan «tenordit» (Na_2SO_4) iborat.

„Mirabelit“ so'zi lotincha „mirabelit“ so'zidan olingan bo'lib „hayratlanarli“ degan ma'noni anglatadi. Bundan ham Kristall eritmasi sovitilganda yana kristallanishi qaytadan erishi hayratlanarli xislatlaridan kelib chiqqan. M

Mirabelit bu minerallarning asosiy qismi ingichka qalamsimon yoki prizmatik ko'rinishda kristalga hosil qilib donachali hamda quyuq massalarhosil qiladi. Uning zaxiralarini ishlash jarayonida kristallarning tugatilishi, tolasimon ko'rinishni egallaydi. Mirabelit kristallari rangsiz tiniq ko'rinishda bo'lib, tarkibida qo'shimchalar bo'lsa, unda uning rangi kulrang bo'ladi. U suvda oson eriydi. Sho'r achchiq ta'mli bo'lib sovutish xususiyatiga ega. Tashqari issiq havoda asta sekin suvini yo'qotadi, quruqlashib, tiniqligini yo'qotadi va oq rangli suvsiz natriy sulfat poroshogini hosil qiladi.

Sanoatda esa bu tuz (Na_2SO_4) "Sulfat nomi" bilan yuritiladi.

Pitardit. Bu mineral ham rombikpiramida holida elastinkasimon holda kristallansada ular bunday holatda kamdan-kam hollarda esa xira oltinsimon ko'rinishda bo'ladi.

Mineral suvda oson eriydi. Sho'r ta'mli bo'lib kuydiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Ochiq havoda o'ziga xos namni yutadi, rangli quyqalashib yuza qismida oq qobig'ini hosil qiladi va asta sekin parashok holiga o'tadi. [18]

Xuddi shuningdek gips ($\text{CaSO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$) hamda kalsiy sulfat tuzlari ham tuzlar tarkibida keng tarqalgan tuzlardan hisoblanadi. Bundan tashqari bular o'zlarining alohida zaxiralariga ega bo'lgan holda ham tabiatda keng tarqalgan.

"Gips" grekcha "giplos" so'zidan olingan bo'lib "bo'r degan ma'noni anglatadi. Gips tabiatda kristallar holida yoki mayday donachalar holidagi massa ko'rinishida uchraydi. Gips kristallarining shakllari har xil. Formalar ko'rinishining qalamcha yoki ignasimon ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Juda yuqori yopishqoqlikka ega bo'lganligi uchun gipsni boshqa kristallar orasida yo'q aplastinkalar holida ajratib olish mumkin. Gips ham boshqa mineral kabi bir qator rangli ko'rinishda bo'ladi. U rangsiz bo'lishi bilan bir qatorda oq kulrang sariqroq hamda qizg'ish ko'rinishlarda ham uchraydi. Gips xalq xo'jaligining turli sohalarida keng qo'llaniladi. [21]

1.2. Mineral tuzlarni ishlab chiqarishning zamonaviy usullari.

Osh tuzini ishlab chiqarish qadimdan bir necha xil usullar yordamida amalga oshirilgan. Tabiiy sho'r suvida hamda yer osti tuz suvlarini o'z-o'zidan tuzlari cho'kkan ko'llardan va ko'llarning sho'r suvlari ham tosh tuzlardan maydalash usuli yordamida olinib kelingan. Yuqorida qayd etib kelingan usullar yordamida dastlab Rossiyaning Yevropa qismidagi viloyatlarni shimoliy hududlarda ma'lum bo'lgan katta sho'r ko'llardan ko'plab miqdordagi tuzlar ajratib olingan. Shimoliy hududlarda tuzlar ishlab chiqarish, XII-asrdayoq amalgam oshirilgan. Bunday ishlar XII-asrning oxiri XIII-asrlarda amalgam oshirilgan dastlab tuz ishlab chiqarish pirimitib texnologiya asosida cheklangan miqdorda amalgam oshirilgan. Keyinchalik zavodlar qurilib kam minerallangan suvlardan tuzlar ishlab chiqarilgan bo'lsa, keyinchalik esa qazib olinib o'ta sho'rlangan suvlardan tuzlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Inder ko'lidan tuz ishlab chiqarish XVII asrning oxiri XVIII asrning boshlarida to'g'ri kelsada biroq bu yerdagi mahalliy ko'chmanchi aholi sho'r ko'llarning tuzlaridan ancha ilgari foydalanib kelishgan. Bu haqida M.V.Lomosov ham 1757-1759 yil yozgan „Osloyax zimmanix“ ilmiy ishlarida ham inder tuzlari haqida o'z fikrlarini qayt etib o'tgan. Qora bug'oz ko'lida murabilit tuzlarining borligi 1847-yil aniqlangan bo'lib, faqat 1910-yil kam miqdorda murabilit olinib so'ngra u suvsizlantirilgan (sulfat holda) agar tuzlarning cho'kish jarayoni eritmasi konsentratsiyani oshirish bilan amalga oshirilsa unda boshqa tuzlar ham shu tariqa ro'y beradi. Ularning zaxiralarida kam ketma-ketligi kuzatiladi. Jumladan K li hamda tosh tuzlarining o'zaro ketma-ketlikda jipslashadi. Ularning zaxiralari 20-25 metrgacha zaxiralar uchun esa bu ko'rsatgich 200-300 metr tashkil etadi. Kaliy tuzlarining tarkibi va ularning zaxiralari xilma-xil bo'ladi. Asosan ular xlorli tuzlardan jumladan selvinet karnolit yoki faqat selvindan iborat bo'lishi mumkin. Biroq K tuzlarining zaxiralarini tarkibi juda murakkab va xilma-xil bo'lishi jumladan xlorli hamda sulfatli tuzlarga boy bo'lishi mumkin. Bir qancha zaxiralarda K, Mg, Na hamda boshqa metallarning 20-25 tagacha minerallari

bo'lishi mumkin. K tuzlarining zaxiralari angidrid hamdas gipsdan yuqori bo'lgan tosh tuzi qatlamlari bilan qoplangan shu bilan ko'pgina bassenlardan kristallanish tuzlarining yig'ilishi oxir oqibatda tuz zaxiralarining hosil qilishi nihoyasiga yetdi. Tuzlar qatlamlari esa o'z navbatida loy, ohak, qum qatlamlari bilan yopilib erib ketishidan saqlanadi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shuni mulohaza qilish mumkinki, mineral tuzlarining hosil bo'lishi uchun quyidagi shart- sharoitlar bo'lishi lozim. [19]

1. Tuz yig'iladigan bassenlar mintaqasidagi iqlim quruq iliq yoki issiq bo'lishi kerak.

2.Suv havzalarining dengiz suvlaridan ma'lum bir tomonlama cheklangan bo'lishi lozim

3.Bug'lanishni o'rnini bosadigan dengiz daryo suvlari ham ma'lum darajada cheklangan bo'ladi.

4.Suv havzalarida istalgan miqdordagi tuzlarning yig'ilishi uchun muhim omil bo'lib hisoblanadi.

5.Bassendagi barcha qatlamlar yig'ilgan tuzlarni erib ketmasligi uchun himoya vazifasini bajarilishini taqozo etadi.Mineral tuzlarning zaxiralarini hosil bo'lishi dastavval qiyin eriydigan cho'kmaga tushishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham qum, ohak, dolomit va shu kabi boshqa qatlamlarning uzunligi 300-400 metrni tashkil etadi. Ko'p hollarda gips hamda angidridlarning yig'ilib bo'lishi bilan bassenda tuzlar cho'kmalarining hosil bo'lishi jarayoni nihoyasiga yetadi. Bunday hollar albatta bassenda dengiz okean suvlarining o'zgarishi qolishi natijasida amalgam oshadi.Agar bassenda tabiiy yo'l bilan tuzlarni cho'lishi boshlansa unda gips hamda angidridlar qatorida gallidning kristallanishi ham amalgam oshadi. Gollidning kristallanishiga ega faqat suvlarining kelib qolishi xalaqit qiladi. Tabiiy sharoitda suvni bug'lantirish va uni tezlashtirish ishlari quyosh nuri orqalli amalgam oshiriladi. Shuning uchun quyosh nuri qaysi ko'proq bo'lsa, yoki yerning ustki qismiga quyosh nuri ko'proq tushsa, o'sha yerlarda suvni bug'lantirish va eritmalarda tuzning konsentratsiyasini yuqori darajada bo'lishiga erishish mumkin. Masalan: qora bug'oz ko'rida mineral suvlarning konsentratsiyasi 54 marta yuqori bo'ladi. Hozirgi vaqtda sho'r ko'llar va dengiz suvlaridagi tuzlarning miqdori 300

gramm litrni tashkil etganida kristallanish amalgam oshadi. Bu esa dengiz suvidagi tuzga nisbatan 10 marta yuqori demakdir, suvning bug'lanishi atrofdagi suv havzalari havosining quruq bo'lishini ta'minlaydi.Suvning yuqori qismida havoning nam bo'lishi bug'lanishni kamaytiradi yoki bug'lanishga yo'l quymaydi. Tuzlarning konsentratsiyasi yuqori bo'lishi uchun bug'lanayotgan suv bilan havzaga tushayotgan sho'r suvning miqdori teng bo'lishi kerak. Bug'lanayotgan suvga nisbatan kelib tushayotgan suvning miqdori yuqori bo'lsa suvdagi mineralning miqdori orta boradi. Aks holda suv havzasidagi tuzlar cho'ka boshlaydi va havosi quriydi. Shunday qilib, fizika geografik sharoit eng avval quruq, iliq yoki issiq iqlim suv havzalaridagi suvning sho'rlanishi ulardan mineral tuzlarning konsentratsiyasini oshirish uchun eng qulay shart-sharoit uchun tuzlarning kristallanib ularning yirik zaxiralarini hosil bo'lishiga imkon yaratadi. Bassenga kelib tushayotgan suvlar 2- tomondan chiqib ketmasligi kerak, ya'ni bir tomonlama yopiq bo'lishi kerak. Shunday holatlardagina tuzlarni konsentratsiyalanish va ularni cho'kmaga tushishi amalgam oshiriladi.

[11]

Tuz zaxiralarining hosil bo'lishining geologik hamda tabiiy shart- sharoitlari va ularning qazilma boyliklarining hosil bo'lishi. Laboratoriya sharoitida tuzlarni ularni tuz eritmalaridan ajratib olish dastavval erituvchi bug'latiladi so'ngra tuz ajratib olinadi. Suvni bug'latish jarayonida eritmaning konsentratsiyasi ortib boradi va oxir oqibatda tuz kristallanib qoladi. Eritmalarning konsentratsiyasi faqat eritmalarini bug'latish yo'li bilan balki ularni muzlatish orqali ham erishish mumkin. Eritmaning konsentratsiyasi oshirish davomida ma'lum bir vaqt eritmada tuzning konsentratsiyasi eng yuqori darajada bo'ladi va bunda bug'latish yoki qizdirish davom ettirilsa tuz cho'kmaga tusha boshlaydi. Agar eritmada bir necha xil tuzlar erigan holda bo'lsa, unda ularning eruvchanligiga eritmada miqdoriga eritmaning tarkibiga bug'latish temperaturasi va vaqtga bog'liq bo'ladi. Har xil tuzlarning erishidan hosil bo'lgan eritmada 1-navbatda eruvchanligi yomon bo'lsa, 1-bo'lib kristalga tushadi. Chunki, bunday tuzning eritmada konsentratsiyasi ozroq ishishi bilan cho'ka boshlaydi, shundan so'ng eruvchanlik yaxshi bo'lgan tuz cho'kmaga tushadi tabiiy sharoitda tuz suvlarining bug'lanishi va ulardan tuzlarning

kristallanishi bir qator sharoitlarga bog'liq bo'lib, tajriba laboratoriyalaridagiga nisbatan ancha qiyin kechadi. [13]

Tabiatda biz har xil tarkibli eritmalar bug'latilganda har xil tuzlar nisbatlarida kristall hosil qiladi. Tabiiy jarayonda sho'r suvlarining bug'lanish jarayonida hamda har xil oqava suvlar ham qo'shilishi mumkin va bu esa uning tarkibida kristallanish jarayonida o'z ta'sirini ko'rsatadi, Bundan tashqari minerallarning tabiiy zahiralarini hosil bo'lishida havo harorati hamda yillik iqlimning o'zgarishi ham katta ta'sir ko'rsatadi. Har qanday holatda laboratoriya hamda tabiiy sharoitlarda ham tuzlarning eritmada cho'kmaga tushishi uchun eritmaning konsentratsiyasi yuqori yoki eritma to'yingan bo'lishi kerak. Shuning uchun ham suvning bug'lanishi tuzlarning kristallanishida yoki tuz zaxiralarining hosil bo'lishida eng muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

1.3.Mineral tuzlarning xalq xo'jaligidagi ahamiyati va ishlatilishi.

Qadimgi davrlarda o'zida osh tuzi bo'lmagan mamlakatlar juda kambag'al hisoblanadi va u yerda tuz olishdan ham qimmat turga. N.V. Lomonosovning ta'kidlashicha o'z zamonasida osh tuzi pul o'rnida qo'llanilgan. Xuddi shuningdek nemis kimyogari Yu. Libexning ta'kidlashicha o'tgan asrning o'rtalarida Afinaning ko'pgina joylarida tuz uchun odamlarni sotishgan. Xatto erkaklar o'z ayollarini ham tuzga almashgan. [8]

Afinaning ko'pgina tumanlarida hozirgi vaqtda ham insonlar bir-birini hurmat belgisi sifatida tuz bilan kutib oladi va mehmon qiladi.18 asrning o'rtasiga qadar Rossiyaga tuz chetdan keltirilgan jumladan Gollandiyadan Peterburgga kelgan boricha kema bortiga ham vino vino bilan tuz borligi keyinchalik ma'lum bo'lgan.

Tuz tansiqiligi natijasida xalq xo'jaligida o'zaro janjallar va to'palanglar kelib chiqqan. Masalan 1648 yil Maskvada ikki yildan so'ng esa Peshkov, Novogrod shaharlarida tuz uchun xalq ko'tarilishlari bo'lib o'tgan bu ko'tarilishlar ayovsiz ravishda bostirilgan, Bularning asosiy sababi tuzning narxini oshirilishi tuz uchun soliq to'lovchilarning joriy etilishi hisoblanadi. Haqiqatdan ham osh tuzi oziq ovqat maxsulotlariga tam berish navbatida inson organizmiga ham muhim rol o'ynaydi. Osh tuzi nafaqat inson organizmi uchun balki o'simlik hayvon organizmlari uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan yovvoyi hayvonlardan ham tuz izlab sho'r suv turli xil joylarda ko'chib ketishgan, xuddi shuningdek ko'pchilik. Afrika hayvonlari ham o'z jipoylarini qirg'oqchilik nuqtai nazaridan balki tuz izlab ham o'z joylarini uzoq-uzoq rayon, vilo;yatlar darajasida o'rganib turadi. Ma'lumki tuz ovqatda ta'm berish bilan bir qatorda u oziq ovqat mahsulotlari (go'sht, konserva) tuzlashda ham qo'llanilgan. [25]

Oziq ovqat sanoatida baliq, go'sht, o'simlik mahsulotlarini ishlab chiqarishda esa konserva ishlarida yog'ishlab chiqarishda qisman konserva mahsulotlari tayyorlashda va boshqa xalq xo'jaligining turli sohalarida keng qo'llaniladi. Oziq-ovqat maqsadlari uchun dunyo miqyosida ishlab chiqariladigan tuzning 60-45%

qo'llanilsa qolgan 35-40% i esa har xil sanoat tarmoqlarida jumladan kimyo sanoati tarkibida Na yoki Cl² ionlar bo'lgan birikmalar ishlab chiqarishda keng qo'llaniladi.Ishlab chiqarishining 1500 ta sohasi mavjud bo'lib ularning hammasida boshlang'ich modda sifatida osh tuzi yoki unng hosilalari ishlatiladi.

Osh tuzi soda ishlab chiqarishda qo'llaniladi. Elektroliz qilinib undan xlor olinadi. Xlordan esa HCl si ishlab chiqariladi. [24]

Xlorid kislotasi sanoatda ishlab chiqarishning turli sohalarida keng qo'llaniladi. Osh tuzining elektroliz qilib olingan soda, farmatsevtikada oziq-ovqat sanoatida shuningdek rezin, gugurt sovun ishlab chiqarilgan. Albatta, bunday qurilish ya'ni zavod ko'priki, omborxona, magazine va boshqa obyektlarni iqlimi quruq bo'lgan rayonlaridagina esa maqsadga muvofiq. Odatdagi iqlim sharoitida ega bo'lgan joylarda bunday qurilish ishlarida tuzdan foydalanish salbiy oqibatlarga olib kelish mumkin. Chunki namgarchilik ob-havo sharoitida tuz erib ketishi mumkin.

Kaliy tuzlari.

O'tgan asrning o'rtalariga qadar ham K li tuzlarning xo'jalik ishlarida ham sanoatda ham faqatgina 1887 yil Germaniyaning strasfurt rayonidan tuz konlaridan K li tuzlarning qatlami aniqlandi va bu tuz osh tuzining qazib olishda, uni tozalash ishlarida xalaqit borganligi uchun chiqindi sifatida tashlab yuborilgan. Biroq keyinchalik bu tuzning qiymati yuqori ekanligi aniqlandi. Keyinchalik ya'ni tosh tuzining zaxiralarida K li tuzlari borligi aniqlangandan so'ng nemis kimyogari Yu. Lebig yerni hosildorligini oshirish uchun uni fosfor, azot bilan birga tuproqqa solish maqsadga muvofiq ekanligini qayd etib o'tadi. Shu tariqa K li o'g'itlarga bo'lgan qiziqish orta boshlaydi. K ning o'g'it sifatidagi qiymati shunchalik darajada oshdiki, bundan 50 yil oldin olingan xom-ashyoning 2,3% qismi kimyo sanoatida qo'llanilgan bo'lsa hozirgi vaqtda bu ishlab chiqarishda qog'oz hamda kraskalar ishlab chiqarishda keng qo'llaniladi.

Keyingi yillarda jahon bo'yicha tuz ishlab chiqarish 130 mln tonnadan oshib ketdi. Sanoati rivojlangan mamlakatlarda aholi boshiga ishlab chiqaradigan tuzning yillik miqdori 40-80 kg ni tashkil etadi. Oziq-ovqat maqsadlarida aholi boshiga to'g'ri keladigan tuzning yillik miqdori 7,5 kg har bir insonga fiziologik norma jihatdan 5,5-6 kg tuz to'g'ri keladi.

Yer osti tuz konlarini qazib olishda hosil bo'lgan katta bo'shliqlardan ham foydalanish keng miqyosda yo'lga qo'yilgan. Masalan ularda katta miqdordagi gazlarni neft saqlashda keng foydalaniladi. Bundan tashqari 1000 yil ilgari Velechka tuz rudasi bo'lgan joyda dunyoda yagona bo'lgan yer osti muzeyi ochilgan bo'lib, undan arxitektura qurilmalari strukturalari hammasi tuzdan yasalgan.


Bundan tashqari bu yerda astma boshqa kasalliklar uchun sanatoriya ham ochilgan. [22]

A.Y. Pravetnik qayt etishiga shaxar Xitoy qo'lida barpo etilgan Kaliyli o'g'it ishlab chiqaradigan korxona barpo etishi jarayonida ham qurilish materiallari sifatida tosh tuzidan foydalanilgan. Tuz bloklaridan nafaqat zavod qurilishidan katta magazinlar, klublar qurishda keng foydalanilgan.


Bundan tashqari Senxay-Tibet avtorassa yo'lida ham uzunligi 32 km kengligi 8-10 metr bo'lgan mustahkam ko'prik qurilishida ham tosh tuzidan foydalanilgan .

Preparat oq yengil parashok bo'lib, 83 qism sovuq suvda, 137 qism qynoq suvda eriydi, spirtida erimaydi. Suvdagi eritmasi ishqoriy reaksiyaga ega.

Litiy karbonat chinligini aniqlashda unga mineral kislotalardan biri ta'sir ettirilsa, CO₂ ajralib chiqadi va quruts preparatni yoqilsa, rangsiz alangani och qizil rangga buyaydi.(litiy ioni)



Preparat miqdorini neytrallash usuli bilan aniqlanadi.



Li₂CO₃ buyrak va siydik yo'llarida tosh paydo bo'lganda va boshqa hollarda parashok holida ishlatiladi.

Og'zi mahkam yopilgan idishlarda saqlanadi.

Osh tuzini ishlab chiqarish qadimdan bir necha xil usullar yordamida amalga oshiriladi. Tabiiy sho'r suvda hamda yet osti tuz suvlarini o'z-o'zidan tuzlari cho'kkan ko'llardan va ko'llarning sho'r suvlari hamda tosh tuzlaridan maydalash usullari yordamida olinib kelingan. Yuqorida qayd etib o'tilgan usullar yordamida dastlab Rossiyaning Yevropa qismidagi viloyatlarni shinfoiiy hududlarida ma'lum bo'lgan katta-katta sho'r ko'llardan Ko'plab miqdordagi tuzlar ajratib olingan.

Shimoliy hududlarida tuz ishlab chiqarish XII asrdayoq amalga oshirilgan. Bunday ishlar XII asrning oxiri XIII asrning boshlarida amalga oshirilgan. Dastlab tuz ishlab chiqarish primitiv texnologiya asosida cheklangan miqdorda amalga oshirilgan. Ishlab chiqarilgan bo'lsa keyinchalik esa qazib olinib o'ta sho'rlangan suvlardan tuzlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Indir ko'lidan tuz ishlab chiqarish XVII asrning oxiri XVIII asrning boshlariga to'g'ri kelsada biroq bu yerdagi mahalliy ko'chmanchi aholi sho'r ko'llarning tuzlaridan ancha ilgari foydalanib kelishgan. Bu haqida M.V.Lomonosov ham 1757-1759 yilda yozgan «Осложь зимных» ilmiy ishlarida ham Indir tuzlari haqida o'z fikrini qayd etib o'tgan.

Qora - bo'g'oz ko'lida mirabilet tuzining borligi 1847-yilda aniqlangan bo'lib faqat 1910-yilda kam miqdorda mirabilet olinib, so'ngra u suvsizlantirilgan.(Sulfat holida).

Agar tuziarning cho'kish jarayoni eritmaning konsentratsiyasini oshirilishi bilan amalga oshirilsa unda boshqa tuzlarda ham jumladan ham shu tariqa ro'y beradi. Ularning zahiralari ham ketma-ketligi kuzatiladi.

Jumladan, kaliyli hamda tosh tuzlarining o'zaro ketma- ketlikda jipslashadi. Ularning zahiralari 20-25 m gacha zahiralari uchun esa bu ko'rsatgich 200-300 metrni tashkil etadi.

Kaliy tuzlarinig tarkibi va ularning zahiralari xilma xil bo'ladi. Asosan ular xlorli tuzlardan jumladan Silvinit karnalit yoki faqat silvindan iborat bo'lishi mumkin. Biroq kaliy tuzlarining zahiralari tarkibi juda murakkab va xilma xil bo'lishi jumladan xlorli hamda sulfatli tuzlarga boy bo'lishi mumkin. Bir qancha zahiralari kaliy magniy hamda boshqa metallarning 20-25 tagacha minerallari bo'lishi mumkin.

Kaliy tuzlarining zahiralari angidrit hamda gipsdan yuqori bo'lgan tosh tuzi qatlamlari bilan qoplangan. Shu bilan ko'pgina bassiyenlarda kristallanish tuzlarning yig'ilishi oxir oqibatda tuz zahiralari hosil bo'lishi o'z nihoyasiga etadi.

Tuz qatlamlari esa o'z navbatida Tosh, ohak, qum qatlamlari bilan yopilib, erib ketishidan saqlanadi va yer osti boyliklari bo'lib xizmat qilaveradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shuni xulosa qilish mumkinki mineral tuzlarning zahiralari hosil bo'lishi uchun quyidagicha shart sharoitlar bo'lishi lozim

Tuz yig'iladigan basseynlar mintaqasidagi iqlim quruq, iliq, yoki issiq bo'lishi kerak.

Suv havzalarining dengiz suvlaridan ma'lum bir tomonlama cheklangan bo'lishi lozim.

Bug'lanishni o'zini bosadigan dengiz, daryo suvlari ham ma'lum darajada cheklangan bo'ladi.

Suv havzalarida istalgan miqdordagi tuzlarning yig'ilishi uchun barcha imkoniyatlar mavjud bo'lishi mumkin omil hisoblanadi.

Basseyndagi barcha qatlamlar yig'ilgan tuzlarni erib ketmasligi uchun himoya vazifasini bajarishini taqozo etadi.

Mineral tuzlarning zahiralari hosil bo'lishi dastavval qiyin eriydigan tuzlarning cho'kmaga tushishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham qum, ohak, dolomit va

shu kabi boshqa qatlamlarning uzunligi 300-400 metrni tashkil etadi. Ko'p hollarda gips hamda angidridlarning yig'ilib bo'lishi bilan basseynda tuz cho'kmalarning hosil bo'lishi jarayoni nihoyasiga yetadi. Bunday hollar albatta basseynda okean suvlarining o'zgarishi kelib qolishi natijasida amalga oshadi. Agar basseynda tabiiy yo'l bilan tuzlarni cho'kishi boshlansa unda gips hamda angidritlar qatorida galitning kristallanishi ham amalga oshadi. Galitning kristallanishiga esa faqat suvlarning kelib qo'shilishi xalaqit qiladi. Tabiiy sharoitda suvni bug'lantirish va uni tezlashtirish ishlari quyosh fitri orqali amalga oshiriladi.

Shuning uchun quyosh nuri qayerda ko'proq bo'lsa yoki yerning qaysi ustki qismiga quyosh nuri ko'proq tushsa o'sha yerlarda suvni bug'lantirish va eritmalarda tuzning konsentratsiyasini yuqori darajada bo'lishiga erishish mumkun.

Masalan, qorabo'g'oz ko'lida mineral suvlarning konsentratsiyasi Kaspiy dengizi suvining konsentratsiyasiga nisbatan 54- marta yuqori turadi. Hozirgi vaqtda sho'r ko'Har yoki dengiz suvlaridagi tuzlarning miqdori 300 g/l ni tashkil etgandagina kristallanish amalga oshadi. Bu esa dengiz suvidagi tuzga nisbatan 10 marta yuqori demakdir.

Suvning bug'lanishi atrofdagi suv havzalar havosining quruq bo'lishini ta'minlaydi. Suvning yuqori qismida havoning nam bo'lishi bug'lanishni kamaytiradi yoki bug'lanishga yo'l qo'ymaydi. Tuzlarning konsentratsiyasi yuqori bo'lishi uchun bug'lanayotgan suv bilan havzaga tushayotgan sho'r suvning miqdori teng bo'lishi kerak. Bug'lanayotgan suvga nisbatan kelib tushayotgan suvning miqdori yuqori bo'lsa suvdagi mineralning miqdori orta boradi. Aks holda suv havzasidagi tuzlar cho'ka boshlaydi va havosi quruq bo'la boshlaydi.

Shunday qilib, fizika geografik sharoit eng avvalo quruq, iliq yoki issiq iqlim suv havzalaridagi suvning sho'rlanishi ulardan mineral tuzlarning konsentratsiyasi oshirish uchun eng qulay shart sharoit bo'lib tuzlarni kristallanib ularning yirik zahiralarini hosil bo'lishiga imkon yaratadi.

Basseynga kelib tushayotgan suvlar ikkinchi tomondan chiqib ketmasligi kerak ya'ni bir tomonlama yopiq bo'lishi kerak. Shunday holatlardagina tuzlarni konsentratsiyalanish va ularni cho'kmaga tushishi amalga oshiriladi.

Tuz zahiralarining hosil bo'lishining geologik hamda tabiiy shart-sharoitlari va ularning qazilma boyliklarining hosil bo'lishi.

Laboratoriya sharoitida tuzlarni suvli eritmalaridan ajratib olish uchun dastawal erituvchi bug'latiladi va so'ngra ajratib olinadi. Suvni bug'latish jarayonida eritmasining konsentratsiyasi ortib boradi va oxir-oqibatda tuz kristallanib qoladi.

Eritmaning konsentratsiyasi faqat eritmalarini bug'latish yo'li bilan balki ulami muz'atish orqali ham erishish mumkin.

Eritmaning konsentratsiyasini oshirish jarayonida ma'lum bir vaqtda eritmada tuzning konsentratsiyasi eng yuqori darajada bo'ladi va bunda bug'latish yoki qizdirish davom ettirilsa tuz cho'kmaga tusha boshlaydi.

Agar eritmada bir necha xil tuzlar erigan holda bo'lsa unda ularning eruvchanligiga, eritmadagi miqdoriga, eritmaning tarkibiga bug'lanish temperaturasiga va vaqtiga bog'liq bo'ladi. Har xil tuzlarning erishidan hosil bo'lgan eritmadan birinchi navbatda eruvchanligi yomon bo'lsa birinchi bo'lib kristallga tushadi. Chunki bunday tuzning eritmadagi konsentratsiyasi ozroq oshishi bilan cho'ka boshlaydi.

kristallanishi bir qator sharoitlarga bog'liq bo'lib, tajriba laboratoriyalaridagiga nisbatan ancha qiyin kechadi. Tabiatda biz har xil tarkibli eritmalarini bug'latilganda har xil tuzlar nisbatlarda kristallar hosil qiladi.

Tabiiy jarayonda sho'r suvlarning bug'lanish jarayonida hamda har xil oqava suvlar ham qo'shilishi mumkin va uning tarkibiga va kristallanish jarayonida o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Har qanday holatda laboratoriya hamda tabiiy sharoitda ham tuzlarni eritmadan cho'kmaga tushishi uchun eritmaning konsentratsiyasi yuqori yoki eritma o'tato'yingan bo'lishi kerak. Shuning uchun ham suvning bug'lanishi tuzlarning kristallanishida yoki tuz zahiralarining hosil bo'lishida eng muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Ko'pchilik foydali qazilmalar ichidan xalq xo'jaligi va turmushda ko'p qo'llaniladigan mineral tuzlar resursi eng muhim ahamiyat kasb etadi. Ular asosan katta ishlab chiqarish zavodlari masshtabida kimyoviy birikmalar ishlab chiqarishda boshlang'ich tabiiy xom-ashyo moddalari sifatida xizmat qiladi. Mineral tuzlar o'zining kelib chiqishi jihatidan nafaqat tarkibi xom ashyoning sifati hamda geologik tuzilishi jihatidan ham farq qiladi.

Tabiiy mineral tuzlarning asosiy gruppasi o'zining kelib chiqishi, fizik kimyoviy xossalariining bir-biriga yaqinligi sanoatda maishiy xizmatda hamda foydali qazilmalardan foydalanish jihatidan bir-biriga yaqin turadi. Ularning harakatli xususiyatlari jumladan suvda yaxshi eruvchanligi sho'rligi va achchiq sho'rligi ham bir-biriga yaqinligini bildiradi. Ximiyaviy jihatdan organda bu tuzlar xlorid, sulfat nitrat hamda karbonat kislotalarning natriy, kaliy, kalsiy, hamda magniyli tuzlaridan iborat. Tabiatda bu metallarning oddiy tuzlari emas, balki qo'sh tuzlari, tarkibida 1-2 va undan ortiq molekulada suv saqlaydigan tuzlar shuningdek suvsiz tuzlari ko'plab uchraydi. Shu nuqtai nazardan olganda mineral tuzlarning tarkibi unchalik murakkab tuzilishga ega bo'lmaydi.

Shubhasiz yuqorida qayd etilgan mineral tuzlar eng muhimi insoniyat qadimdan foydalanib kelayotgan osh tuzi hisoblanadi. Insoniyat osh tuzidan millionlab yillar davomida nafaqat oziq-ovqat mahsulotlariga tam beruvchi modda sifatida balki, osh tuzi inson organizmi uchun eng zarur modda ekanligini bilgan holda ham foydalanib kelingan.

Insoniyatning yillar davomida tuzidan oziq-ovqat mahsulotlari tayyorlash hamda uni iste'mol qilib kelingan bo'lsa, ximiya hamda ximiya sanoatining rivojlanishida uni sanoat miqiyosida ham foydalanish imkoniyatlari ham vujudga keldi. Mineral tuzlar jumladan sho'rlangan qumlardan soda ishlab chiqarish dastlab qadimda amalgam oshirilgan huddi shuningdek shisha ishlab chiqarish ham birinchi oshirilgan eng muhim ximiyaviy reagentlardan hisoblanganligi sababli natriy nitrat hamda kaliy nitratlardan o'rta asrlarda sun'iy usullarda ishlab chiqarila boshlangan. Porox ishlab chiqarishga bo'lgan talab oshganligi uchun bu tuzlarni ko'plab ishlab chiqarish ehtiyojlari tug'ila boshlagan. Tabiiy sletraning qazilma boyliklari dastlab 1809 yilda aniqlangan. 100 yillar davomida Chili sletrasi nitrat kislotasi va uning tuzlarini olishning asosiy xom-ashyosi bo'lib xizmat qilib kelgan. Faqatgina azotni havodan ajratib olish ishlari yo'lga qo'yilgandan so'ng esagina azotni birikmalarini ishlab chiqarish sohasida bir muncha ijobiy ishlar amalga oshirildi.

